

## MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MAZMUN VA MOHIYATI

**Nazimov Raxmatilla Normuradovich**

*O'R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi, Qurollanish va otish sikli  
katta o'qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi*

**“Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining  
yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”**

**Shavkat Mirziyoev**

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

**Annotatsiya:** *O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi barcha ta’lim muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ydi. Shaxsni tarbiyalash — «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da Respublika ta’lim xodimlari zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni o‘rganuvchilarni o‘qitishga yangicha yondashish, o‘qituvchilarni o‘z kasbiga va o‘zgalarga, ya’ni ta’lim oluvchilarga o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi..*

**Kalit so‘zlar:** *muammoli o‘qitish, texnologiya, ta’lim oluvchi, didaktik.*

### **Muammoli o‘qitishning tarixi**

Muammoli o‘qitishning asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Djon Dyui g‘oyalari asos bo‘ladi. **Muammo** (yunoncha- to‘siq, qiyinchilik; arabcha jumboq, sirli degan ma’noni anglatadi.

**Muammoli o‘qitish** - amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Djon Dyuning **(1859-1952)** nazariy qoidalariga asoslanadi.

Djon Dyui o‘qitish uchun hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan to‘rt ehtiyojni belgilab oldi:

- didaktik xarakterdagi muammo;
- amaliy xarakterdagi muammo ;
- ilmiy-metodik xarakterdagi muammo;
- sof ilmiy xarakterdagi muammo.

### **Muammoli o‘qitish texnologiyasi mohiyati va maqsadi.**

Muammoli o‘qitish texnologiyasini o‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilarni o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini xal qilish orqali yangi bilimlarini o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi.

**Muammoli o‘qitish texnologiyasining maqsadi-** nafaqat ilmiy bilishning natijalarini sinchiklab tahlil qilish, o‘rganishdan iborat bo‘lmay,

tinglovchining bu natijalarini olish jarayonini o'rganishdan, bilish faoliyatini va uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

**Muammoli o'qitish texnologiyasi** XX asrning 20-30-yillarida qo'llanilib boshladi.

Dj. Dyui o'qitish uchun quyidagilarni muammoli ta'limning asosiy yo'nalishlarini asos qilib belgiladi:

- ijtimoiy;
- konstruksiyalash;
- badiiy ifodalash;
- ilmiy-tadqiqiy.

Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat.

XX asr boshlarida Dj.Dyui darsda o'qituvchi emas ta'lim oluvchi faol bo'lmog'i lozim degan g'oyani ilgari surdi. U kitobdagi bilimlarni quruq yod olish hech narsaga olib bormaydi, aksincha, ta'lim oluvchilarni o'qitishdan sovutib, tafakkurini zanglatadi deb ta'kidladi. Dyuning ta'lim tarbiyaga qo'shgan asosiy hissasi – bu “aql yuritishning to'liq jarayoni” dir.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan ta'lim oluvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida ta'lim oluvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir.

Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantig'i o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli o'qitishda - Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, ta'lim oluvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi.

Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, ta'lim oluvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «**gap nimada?**» degan savol tug'iladi.

**Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta asosiy shartlari mavjud:**

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammoning yechimida olinadigan axborotni ta'lim oluvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tiborsiz va rag'batsiz qolmasligi zarur.

Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil yetishning shunday shakli, unda o'qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi ta'lim oluvchilarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o'qitishni tashkil yetish natijasida ta'lim oluvchilarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo'ladi:

- eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;
- (o'quv ishlarining barcha turlarida muammoli o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- muammoli o'qitishning yeng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratish;
- shaxsiy yondashuv va o'qituvchi mahorati.

**XULOSA:**

Xulosa qilib aytish mumkinki, muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga ta'lim oluvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy ta'lim oluvchilar o'qituvchilardan loyiha va muammoli ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida maqsadli, samarali qo'llashni talab etadi. Mazkur ta'lim texnologiyalarining mohiyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish malaka oshirish kurslari tinglovchilarining

mavjud bilimlarini boyitish bilan birga amaliy ko'nikma, malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mahkamov U.B. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1998. – 48 b.
2. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 2009. – 560 b.
3. Milliy istiqlol g'oyasi (asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar) Toshket-2002 y. 68 b.
4. Psixologiya i pedagogika. / Pod red. Radugina A.A. – Moskva: sentr, 2003. – 256 str.
5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedpgogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013. - 277 b.
6. Satib-Aldiev A.A., Karimjonov A.A. Harbiy pedagogika. – T.: Sharq, 2005. – 256 b.